

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEV IKROM ILXOMJON O‘G‘LI**

**XXI ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA  
AFG‘ONISTON POKISTON MUNOSABATLARI**

**07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 323 (4/9).93**

**ББК: 66.3 (5)**

**X – 98**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по историческим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
in Historical science**

|  |    |
|--|----|
| <b>Xudayberdiyev Ikrom Ilhomjon o'g'li</b><br>XXI asrning birinchi choragida Afg'oniston Pokiston munosabatlari .....                  | 3  |
| <b>Худайбердиев Икром Илхомжон угли</b><br>Афгано-пакистанские отношения в первой четверти XXI века.....                               | 27 |
| <b>Khudayberdiyev Ikrom Ilkhomjon ogli</b><br>Afghanistan-Pakistan relations in the first quarter of the 21 <sup>st</sup> century..... | 53 |
| <b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b><br>Список опубликованных работ<br>List of published works .....                                  | 57 |

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEV IKROM ILXOMJON O‘G‘LI**

**XXI ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA  
AFG‘ONISTON POKISTON MUNOSABATLARI**

**07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Tar1148 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Xaydarov Abdusamat Axatovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Raximov Mirzohid Akramovich**  
tarix fanlar doktori, professor

**Akmalov Shaislom Ikramovich**  
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmiy@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2022 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**M.M. Is'hoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
tarix fanlari doktori, professor

**N.R. Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.B. Shadmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,  
tarix fanlari doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turli tahdidlar, davlatlar va mintaqalar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi, iqtisodiy va energetik inqiroz kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Markaziy Osiyoda iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Dunyo xavfsizlik tizimida doimo o'zining beqarorligi bilan ajralib turadigan Janubiy Osiyo mintaqasida sodir bo'layotgan so'ngi geosiyosiy jarayonlar qaytadan jahon hamjamiyatining nigohini o'ziga qaratayotgan bir davrda Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining dinamikasi mavjud siyosiy jarayonlarning bir qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqalari beqarorligiga bevosita ta'sir qiluvchi ushbu ikki davlat munosabatlarining o'zgaruvchan dinamikasini har tomonlama tahlil qilish va istiqbollari belgilash bugungi kunda mintaqada davlatlari tashqi siyosatining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar Markaziy va Janubiy Osiyodagi xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish va geosiyosiy muvozanatni belgilab beruvchi muhim omillardan biri o'laroq ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortib kelgan. Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, ikki davlat o'rtasidagi mavjud etnik va transchegaraviy muammolar, shuningdek, Markaziy Osiyoning Afg'oniston va Pokiston bilan bog'liq iqtisodiy loyihalarining kelajakdagi integratsion jarayonlarga ta'siri Yevropa va Amerika, Xitoy va Rossiyaning tadqiqot markazlarining asosiy yo'nalishiga aylangan. Bu kabi tahlil markazlarining faoliyati Afg'onistondagi uzoq muddatli, beqaror siyosiy vaziyat bugungi kungacha o'z yechimini topmaganligini va ushbu muammoning dolzarbligini belgilagan holda Markaziy Osiyo davlatlaridagi mavjud tahliliy va ilmiy-tadqiqot markazlarining ham asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Janubiy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta'minlash, mintaqada joylashgan Afg'oniston va Pokiston davlatlarining iqtisodiy, madaniy, siyosiy sohalarida mintaqada davlatlari bilan hamkorligini ta'minlash Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab olingan. Bu borada ikki davlat munosabatlarini rivojlanishida transport yo'laklari bilan bog'liq xalqaro miqyosdagi loyihalar, energetika resurslarini yetkazib berish va siyosiy muzokaralar o'tkazishda yetakchi platforma vazifasini bajarish takliflari orqali O'zbekiston muhim qadamlarni tashlamoqda. "Amudaryoning narigi sohilida tinchlik bo'lmasa, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi"<sup>1</sup>. Shu sababli, o'zining yangi tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar inqirozga duch kelayotgan Afg'onistonga nisbatan e'tibor susayib borayotgani mintaqada davlatlarida xavotir uyg'otmasdan qolmaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4892-son "Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" xalqaro konferensiyasi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatnomasi. 26-iyul, 2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/26/afghan/>

kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019-yil 23-maydagi PQ-4331-son O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar (qo‘mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning O‘zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, qarorlar va sohaga oid boshqa normativ-hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy tadqiqot mavzusi doirasidagi tadqiqotlarni shartli ravishda: markaziy osiyolik mualliflar, xorijiy mualliflar va alohida Afg‘oniston va pokistonlik mualliflarning tadqiqot ishlari singari uch guruhga tasniflab tahlil qildik.

Birinchi guruh. Markaziy Osiyo olimlaridan S.Safoyev<sup>2</sup> o‘zining monografiyasida Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarning umumiy tarixi va Afg‘onistonning Markaziy Osiyoga ta‘sirini ko‘rsatib bergan. Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlarning O‘zbekistonga ta‘siri masalasi A.A.Xaydarovning<sup>3</sup> tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. S.Akimbekov<sup>4</sup>, R.Rashidov<sup>5</sup>, Sh.Akmalov<sup>6</sup> kabi tadqiqotchilar Afg‘oniston tarixini umumiy yoritish orqali davlatchilik masalalariga urg‘u berishgan bo‘lsa, Sh.Riyozon va M.Giyasov<sup>7</sup>, S.Bo‘ronov<sup>8</sup> ning ilmiy nashrlarida Afg‘onistonning geosiyosiy joylashuvining ahamiyati va Janubiy Osiyo bilan bog‘liq iqtisodiy loyihalardagi ishtiroki tadqiq qilingan. Soha mutaxassislaridan biri A.Umarov<sup>9</sup> Afg‘oniston va Xitoy munosabatlariga oid tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, Xitoyning Janubiy Osiyodagi ta‘sirini ko‘rsatib bergan.

---

<sup>2</sup> Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: Patent press, 2005. – 160 b.

<sup>3</sup> Хайдаров А.А. Мусульманское духовенство и власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана // Мир и безопасность. – 2020. Vol 20. № 4 – С. 747-762; O‘sha muallif. Штрихи к причинам и последствиям падения правительства А. Гани в Афганистане // Вестник Учёных-международников. – 2023. №1. – С. 84-104.

<sup>4</sup> Акимбеков С. История Афганистана – Астана-Алматы: Курсив, 2015. – 847 с; O‘sha muallif. Афганский узел и проблемы безопасности Центральной Азии – Алматы: Казахстанский Институт стратегических исследований при Президенте Республики Казахстан, 2003. – 400 с.

<sup>5</sup> Rashidov R.R. Afg‘onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. – Toshkent: Navruz, 2017. – 263 b.

<sup>6</sup> Akmalov Sh. “Tolibon” omilining Pokiston geostrategiyasiga ta‘siri: manfaatlar va tahlikalar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – B. 308-316; O‘sha muallif. Modern Uzbek-Pakistani relations as an important element for the development of interconnectivity and cooperation in central and south asia // Oriental journal of history, politics and law – 2022. – P. 231-238; O‘sha muallif. Афганистан: этапы урегулирования и последствия постконфликтной ситуации // “Центральная Азия и Кавказ” 2006. – С. 78-83.

<sup>7</sup> Риёзон Ш., Гиёсов М. Афганистан до и после возвращения Талибан. Душанбе: Дониш, 2023. – 508 с.

<sup>8</sup> Bo‘ronov S. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati. Toshkent: Effect-D, 2021. – 201 b.

<sup>9</sup> Umarov A. Assessing China’s new policy in Afghanistan // Central Asian Affairs – 2017. – P. 384-406; O‘sha muallif. The Afghan factor in Uzbekistan’s foreign policy: evolution and the contemporary situation – 2021. – P. 536-553.

Ikkinchi guruh V.Belokrenskiy va T.Shaumyan,<sup>10</sup> V.Moskalenko<sup>11</sup>, P.Saykes<sup>12</sup>, V.Korgun<sup>13</sup>, B.Rubin<sup>14</sup>, A.Lieven<sup>15</sup>, A.Knyazev<sup>16</sup> kabilar Afg'oniston va Pokiston munosabatlarini kompleks tadqiq qilgan olimlar hisoblanadi. Ingliz va rus olimlari o'z tadqiqotlarida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan obyektivlikni saqlashga harakat qilgan. Lekin ayrim hollarda tarafkashlik mavjud bo'lib, uning ildizlari "Katta o'yin" deb nomlangan ikki imperiya o'rtasidagi raqobat davri bilan bog'liq.

Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi siyosiy jarayonlar tarixi M.Nessar<sup>17</sup>, Y.Panichkin<sup>18</sup>, F.Grare<sup>19</sup>, F. Ahmet<sup>20</sup>, S. Tanner<sup>21</sup> kabi olimlar tomonidan o'rganilgan va muammoga nisbatan ikki davlatni pozitsiyasini ko'rsatishga harakat qilishgan. Shuningdek, C.Setas<sup>22</sup> Pokistonning Afg'oniston va "Tolibon" harakati o'rtasidagi ahamiyatini o'rganadi va Karzay hukumatini kelishuvga tayyor emasligini ko'rsatadi. D.Kux<sup>23</sup> Amerika va Pokiston munosabatlarini o'rganish orqali uning Afg'onistonga ta'sirini ochib bergan. T.Hammond<sup>24</sup> SSSRning Afg'onistonga kirib kelishi va uning Pokistonga ta'sirini tadqiq qilgan bo'lsa, B. Riedel<sup>25</sup>, ushbu holatni Amerika nuqtai nazaridan ochib berishga harakat qilgan.

Uchinchi guruh afg'onistonlik va pokistonlik mualliflarning ilmiy ishlarini o'z ichiga olgan bo'lib, Afg'oniston va Pokiston munosabatlariga nisbatan chuqur yondashuvlar mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, mintaqa mualliflari ikki davlat o'rtasidagi muammolarga tashqi aralashuvning kuchliligini sabab qilib ko'rsatishadi. J.Azhar<sup>26</sup>, R.Hussain<sup>27</sup>, A.Naved, Sh.Muhammad, R.Fazal<sup>28</sup>,

---

<sup>10</sup> Белокреницкий В., Шаумян Т., Москаленко В., Л. Южная Азия в мировой политике. – Москва: Международные отношения, 2003. – 365 с.; O'sha muallif. Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – Москва: ИВ РАН, 2014. – 218 с.

<sup>11</sup> Москаленко В., Топичканов П. Сила и слабость Пакистана. – Москва: Центр Карнеги, 2013 – 75 с.

<sup>12</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. – London: Macmillan and Co. LTD, Vol II, 1940. – 414 p.

<sup>13</sup> Коргун В. История Афганистана XX век. – Москва: Крафт +, 2004. – 525 с.; O'sha muallif. Вывод войск США/НАТО из Афганистана: проблемы и вызовы // Афганистан и Пакистан: современное состояние и перспективы развития. – Москва: "Вишневый пирог", 2012. – С. 21-33.

<sup>14</sup> Rubin B and Siddique A. Resolving the Pakistan –Afghanistan Stalemate. United States Institute of peace, Special Report 176. October 2006 – 20 p.

<sup>15</sup> Lieven A. Pakistan: A Hard Country. – Germany: Penguin Books, 2011. – 465 p.

<sup>16</sup> Князев. А.А. Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст // Постсоветские исследования. – 2023. – С. 266-280.

<sup>17</sup> Нессар О. История Политического Развития Современного Афганистана (2001-2014 гг.) Дисс. канд. ист. наук – Москва, 2014. – 237 с.

<sup>18</sup> Юрий П. Пакистано-афганские отношения: эволюция, проблемы, решения. 1947 – 2014 гг. Дисс. док. ист. наук – Москва, 2015 – 511 с.

<sup>19</sup> Frederic G. Pakistan-Afghanistan relations in the post-9/11 era. – Washington: Carnegie Endowment for International Peace Publications Department, 2006. – 24 p.

<sup>20</sup> Fazil A. Afganistan ve cevresini anlamak. Turkiye Ekonomi Politikolari Arastirma Vakfi. 2021 – 11 p.

<sup>21</sup> Tanner S. Afghanistan A Military History from Alexander the Great to the Fall of the Taliban. – Cambridge: Da Capo Press, 2003. – 368 p.

<sup>22</sup> Setas C. Relations between Afghanistan and Pakistan and the peace process with the afghan Taliban. Revista del Instituto Espanol de Estudios Rstrategicos, 2013. – 23 p.

<sup>23</sup> Kux D. The United States and Pakistan, 1947-2000: Disenchanted Allies. – Baltimore: The Johns Hopkins University Press, 2001. – 500 p.

<sup>24</sup> Hammond T. Red flag over Afghanistan: The communist coup, the Soviet invasion and the consequences. – Boulder: Westview Press, 1984. – 280 p.

<sup>25</sup> Riedel B. What We Won America's Secret War in Afghanistan (1979-1989). – Washington: Brookling Institution Press, 2014. – 211 p.

<sup>26</sup> Azhar J. Pakistan-Afghanistan Relations in Post-Daud Period: Implications for Pakistan: political Science. Doc of philosophy – Pakistan, 2010. – 270 p.

W.Rehan<sup>29</sup>, A.Muhammadiyah<sup>30</sup>, Z.Muhammad<sup>31</sup>, A.Xolidiy<sup>32</sup> kabi olimlar tomonidan yozilgan tadqiqotlarda Afg'oniston va Pokiston tarixi umumiy yoritilgan hamda ikki davlat munosabatlaridagi kamchiliklarga alohida to'xtalgan bo'lsa, A.Zahid<sup>33</sup>, H.Hakimiy, Z.Nishat<sup>34</sup>, N.Ashraf<sup>35</sup>, N.Aranovich<sup>36</sup>, A.Hojiniy<sup>37</sup> kabi olimlar asosiy kamchiliklar sifatida hududiy muammoning hal etilmaganligiga urg'u berishadi.

M.Yousaf, M.Adkin<sup>38</sup> tomonidan yozilgan kitob Pokiston milliy xavfsizlik xizmatining Afg'oniston bilan maxfiy ma'lumotlarini o'zida mujassam etgan. Pokistonning sobiq generali F. Chisti<sup>39</sup> ning kundaligi esa Pokistonning tashqi siyosatini yoritishda birlamchi manbaa sifatida xizmat qiladi. Pashtuniston muammosining kelib chiqishi A.Viqar<sup>40</sup>, J.Nasrullah<sup>41</sup>, S.Mahomed<sup>42</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Mintaqada xavfsizlik muvozanatiga ta'sir ko'rsatgan 11-sentabr voqealaridan keyin ikki davlat munosabatlari A.Tariq<sup>43</sup>, B.Zarina<sup>44</sup>, A.Rezoi<sup>45</sup>, Z.Halilzod<sup>46</sup> tomonidan yozilgan tadqiqot ishlarida keng ochib berilgan. M.Yousaf<sup>47</sup>, H.Rafiq<sup>48</sup> Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegaraviy nizolarni Pokiston nuqtai nazaridan muhokama qilgan va muammoning Amerika ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tadqiq qilgan.

---

<sup>27</sup> Rizwan H. Pakistan and the Emergence of Islamic Militancy in Afghanistan: A Politico-Historical Analysis: political Science. Doc of philosophy – Australia, 2003. – 377 p.

<sup>28</sup> Naveed. A, Muhammad. Sh, Fazal R. Mistrust factor in Pak-Afghan Fluctuating Relations since Beginning // Global Political Review – 2019. – 258 p.

<sup>29</sup> Wajahat R. Chronology Afghanistan conflict and Pakistan-Afghanistan relations 2001 to 2021 // Pakistan-Afghanistan Relations: Pitfalls and the Way Forward – 2021. – P. 231-229.

<sup>30</sup> دکتر عبدالعلی محمدی. افغانستان و دولت مدرن. – کابل. ۲۰۱۹. – ص. ۳۶

<sup>31</sup> ژنرال محمد ظاهر عظیمی. طالبان چگونه آمدند؟ مرکز نشر کابل. ۲۰۰۱. – ص. ۱۹۰.

<sup>32</sup> نور احمد خالدی. افغانستان: مردم، تاریخ و سیاست. – نشر. ۲۰۲۰. – ص. ۵۲۶

<sup>33</sup> Zahid A. Military operations in FATA and PATA: implications for Pakistan // Strategic Studies – 2012. – P. 129-146.

<sup>34</sup> Hakimi H, Nishat Z. Pakistan-Afghanistan Relations: Emergence of New Nation States and the Search for Identity // Pakistan-Afghanistan Relations: Pitfalls and the Way Forward – 2021. – P. 1-29.

<sup>35</sup> Ashraf N. US and Pakistan Relations: Muddling Towards Compelling Coincident Interests. – Pennsylvania: Strategy Research Project, 2012. – 22 p.

<sup>36</sup> نفتولا آرونوویچ خافین. شکست تجاوز بریتانیا بر افغانستان. – مسکو. ۱۹۵۹. – ص. ۱۰۳.

<sup>37</sup> عارفه حاجی نی. ژنوپلیتیک آمریکا: افغانستان و کنترل چین. – مرکز نشر کابل. ۲۰۰۹. – ص. ۷.

<sup>38</sup> Yousaf M., Adkin M. The Bear Trap, Afghanistan Untold Story. – London: Leo Cooper, 1992. – 146 p.

<sup>39</sup> Chisti F. Betrayals of Another Kind: Islam, Democracy and the Army in Pakistan. – New Delhi: Tricolour Books, 1989. – 332 p.

<sup>40</sup> Viqar A. Ethnicity, Islam and Nationalism Muslim Politics in the North-West Frontier Province (Kybar Pakhtunkhwa) (1937-1947). – Pakistan: Roohani Art Press, 2015. – 356 p.; O'sha muallif. Fencing of the Durand Line and Its Impact. // International Asien forum, Vol 44, №1-2. – 2013. – P. 85-103.

<sup>41</sup> Nasrullah J. Pashto Adabi Tolana: History and Contributions. // Biannual research Journal, Vol 47, №655. – 2018. – P. 11-22.

<sup>42</sup> Mahomed S. Life of Abdur Rahman Khan Amir of Afghanistan. Vol II, – London: Edinburgh Press, 1900. – 335 p.

<sup>43</sup> Tariq A. PAK-Afghan relations Dilemma: post 9/11 dimensions and implications. Doc of philosophy in Political Science, 2021. – 206 p.

<sup>44</sup> Zarmina B. Pakistan's post 9/11 afghan policy: challenges and prospects (2001-2014). Doc of philosophy in Political Science, 2018. – 280 p.

<sup>45</sup> دکتر علیرضا رضایی. چین و موازنه نرمدر برابر هژمونی ایلات متحده آمریکا در عرصه نظام بین الملل. کابل. ۲۰۱۹. – ص. ۱۱.

<sup>46</sup> زلمی خلیل زاد. فرستاده – نشر عازم. ۲۰۱۵. – ص. ۳۷۰.

<sup>47</sup> Yousaf M. Framing of Pak-Afghan border management issue in Pakistan, Afghanistan and US press. Doc of Philosophy in Mass Communication. 2020. – 148 p.

<sup>48</sup> حبیبالله رفیق. تاریخ فشرده افغانستان. – اریک. ۲۰۰۷. – ص. ۷۷.

K.Marium<sup>49</sup>, A.Amirxon<sup>50</sup>, M.Sana<sup>51</sup> o'z tadqiqotlarida Hindistonning ikki davlat siyosatidagi o'rnini yoritib bergan. Shuningdek, Hindiston va Pokistonning Afg'oniston uchun raqobatini o'z tadqiqotlarida tahlil qilgan. Lekin tadqiqot Pokiston tashqi siyosati nuqtai nazaridan ochib berilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli "Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri" loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** XXI asrning birinchi choragida Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining rivojlanish tarixi, xususiyatlari va rivojlanish dinamikasi hamda unga ta'sir etuvchi omillarni yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Afg'oniston va Pokiston munosabatlaridagi etno-hududiy muammolarni tadqiq etish;

1978-1994 yillarda ikki davlat munosabatlar rivojlanishining dinamikasi va uning sabablarini aniqlash;

Afg'onistonda demokratik jarayonlar sharoitida, prezidentlar Hamid Karzay va Ashraf G'ani hukumatlarining Pokiston bilan munosabatlari tahlilini ko'rsatib berish;

2021-yil avgust oyida "Tolibon" hokimiyatga kelganidan keyin Afg'oniston-Pokiston munosabatlarining rivojlanishini ochib berish;

Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining Markaziy Osiyoga ta'sirini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning obyekti.** XXI asrning birinchi choragida Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining rivojlanish tarixi tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** XXI asrning birinchi choragida Afg'oniston-Pokiston munosabatlari rivojlanish dinamikasining xususiyatlari, uning Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga ta'siri tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda fanlararo yondashuv, tizimlashtirish, qiyosiy va tizimli tahlil, muammoviy-xronologik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

2020-yilda AQSh va "Tolibon" kelishuvining tuzilishi, 2021-yilda AQSh va NATO qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilishi ushbu mintaqaning geosiyosiy va xavfsizlik manzarasini o'zgartirishi, Pokiston toliblarga bevosita ta'sir o'tkaza oluvchi davlat sifatida ushbu geosiyosiy vaziyatning markazida turganligi, bu o'z navbatida, Afg'oniston bilan ikki tomonlama munosabatlarni

<sup>49</sup> Marium K. Role of India in Afghanistan and the Changing Regional security Scenario of South Asia; Implications for Pakistan (2001-2014). PhD in International Relations, 2013. – 337 p.

<sup>50</sup> Amir K. Analysis of post 9/11 Political-economic influences of India and Pakistan on Afghanistan. PhD in International relations, 2020. – 379 p.

<sup>51</sup> ۱۰۶ ص. – ۲۰۰۷. – مرکز نشر کابل. – داکتر محمد ثنا متین نیکی. از اجلاس روم تا انتخابات پارلمانی. – ۲۰۰۷. – ص. ۱۰۶

qayta ko‘rib chiqish va yangi xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishni talab etishi dalillangan;

Afg‘onistonda “Tolibon”ning hokimiyatga qaytishi Pokiston bilan munosabatlarida yangi nizoli dinamikani yuzaga keltirganiga qaramasdan “Tolibon” rejimining xalqaro miqyosda tan olinishi va qo‘llab-quvvatlanishiga intilishida ularning pozitsiyalarini yaxshi tushinadigan mamlakat sifatida rasmiy Islomobod asosiy rol o‘ynashi isbotlangan;

Mamlakatlar o‘rtasidagi to‘laqonli iqtisodiy hamkorlik va savdo imkoniyatlarini yangi mintaqaviy tashabbuslar va kelishuvlar, xususan, Xitoy (Bir kamar, bir yo‘l), O‘zbekiston (Transafg‘on temir yo‘li) va boshqalar kontekstida qayta ko‘rib chiqish mumkin ekanligi, infratuzilma va transport yo‘laklarini rivojlantirish ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi ham iqtisodiy, ham siyosiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qilishi aniqlangan;

Afg‘oniston-Pokiston munosabatlaridagi etnik va hududiy chegaralanish borasidagi mavjud muammolar bir qator asosiy tashqi omillar, o‘zgaruvchan geosiyosiy kontekst, har ikki mamlakatdagi ichki siyosat va xavfsizlik evolyutsiyasi, mintaqaviy va global dinamika bilan bog‘liq ekanligi ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Tadqiqotda ilk bor Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi hududiy muammolarni tadqiq qilishda va ularning chegara hududlarga bo‘lgan da‘volari xalqaro huquq normalari, shu davrgacha tuzilgan afg‘on amirlari va ingliz vakillari o‘rtasidagi kelishuvlar, hududiy davolar yuzasidan chiqarilgan qonun hujjatlari asosida chuqur tahlil qilib berilgan;

Afg‘onistonga yangi “Tolibon” hukumatining kelishi natijasida, Afg‘onistonning jahon hamjamiyatidagi holati, Pokiston hukumatining “Tolibon” hukumati bilan aloqalari Islomobod tashqi siyosatidan kelib chiqib tahlil qilingan;

Afg‘oniston, Pokiston, O‘zbekiston davlatlari misolida Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar jumladan, xavfsizlik, iqtisodiy masalalarning amalga oshirilishi, yuzaga keladigan muammolar o‘rganilib, tahliliy xulosalar berilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda zamonaviy yondashuvlar va tadqiqot mavzusiga oid bo‘lgan turli tillardagi ilmiy muomalaga kiritilgan maqola va adabiyotlardan foydalanganligi, xalqaro darajadagi tahliliy markazlar, tadqiqot institutlari tomonidan chop etilgan hisobotlarning tadqiqotdan joy olganligi, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olib borilgan tadqiqotning natija va xulosalaridan ta‘lim muassasalari va dasturlarida “Xalqaro munosabatlar” va “Jahon siyosati” kabi fanlarni o‘qitishda, o‘quv-qo‘llanmalar yaratishda, mavzuga oid tadqiqotlarni olib borishda, taklif va xulosalarni ishlab chiqishda xizmat qilishi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida o‘rganilgan masalalar va berilgan xulosalar vazirlik, idoralar tomonidan tahliliy materiallar tayyorlashda, Afg‘oniston va Pokiston munosabatlari bilan bog‘liq tadqiqotlarda qo‘llash va amaliyotga joriy etish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XXI asrning birinchi choragida Afg‘oniston va Pokiston munosabatlarining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

2020-yilda AQSh va “Tolibon” kelishuvining tuzilishi, 2021-yilda AQSh va NATO qo‘shinlarining Afg‘onistondan olib chiqilishi ushbu mintaqaning geosiyosiy va xavfsizlik manzarasini o‘zgartirishi, Pokiston toliblarga bevosita ta’sir o‘tkaza oluvchi davlat sifatida ushbu geosiyosiy vaziyatning markazida turganligi, bu o‘z navbatida, Afg‘oniston bilan ikki tomonlama munosabatlarni qayta ko‘rib chiqish va yangi xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishni talab etilishi dalillangan. Muammolar yuzasidan keltirilgan taklif va xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 24-iyundagi 01-18-18/8427-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar va takliflar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Afg‘onistonda “Tolibon”ning hokimiyatga qaytishi Pokiston bilan munosabatlarida yangi nizoli dinamikani yuzaga keltirganiga qaramasdan “Tolibon” rejimining xalqaro miqyosda tan olinishi va qo‘llab-quvvatlanishiga intilishida ularning pozitsiyalarini yaxshi tushinadigan mamlakat sifatida rasmiy Islomobod asosiy rol o‘ynashi isbotlangan. Ushbu ma’lumotlar Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan. (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti IL-5221091507 “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqbollari (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” mavzusidagi amaliy loyihaning 06.28.2024 yildagi majlisi 01-04-01/1447-sonli ma’lumotnomasidan ko‘chirma). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan ma’lumotlar loyiha doirasida chop etilgan tahliliy materiallarni tayyorlashga va tegishli tashkilotlarga taqdim etishga xizmat qilgan.

Mamlakatlar o‘rtasidagi to‘laqonli iqtisodiy hamkorlik va savdo imkoniyatlarini yangi mintaqaviy tashabbuslar va kelishuvlar, xususan, Xitoy (Bir kamar, bir yo‘l), O‘zbekiston (Transafg‘on temir yo‘li) va boshqalar kontekstida qayta ko‘rib chiqish mumkin ekanligi, infratuzilma va transport yo‘laklarini rivojlantirish ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi ham iqtisodiy, ham siyosiy aloqalarni yaxshilashga xizmat qilishi aniqlangan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlar aro munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 12-iyuldagi 14-07-1165-sonli ma’lumotnomasi) Mazkur dissertatsiya ishidagi ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan Qo‘mitaning O‘zbekiston va xorijiy madaniy markazlari bilan hamkorlikdagi madaniy-ma’rifiy tadbirlarini tashkil etishda, O‘zbekiston – Pokiston, O‘zbekiston – Afg‘oniston, do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirishda foydalanilgan.

Afg‘oniston-Pokiston munosabatlaridagi etnik va hududiy chegaralanish borasidagi mavjud muammolar bir qator asosiy tashqi omillar, o‘zgaruvchan geosiyosiy kontekst, har ikki mamlakatdagi ichki siyosat va xavfsizlik

evolyutsiyasi, mintaqaviy va global dinamika bilan bogʻliq ekanligi ochib berilgan. Keltirilgan taklif va xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 24-iyundagi 01-18-18/8427-sonli maʼlumotnomasi). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar va takliflar sohaga oid bazani takomillashtirishga va amalda qoʻllashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish eʼlon qilingan. Shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Afgʻoniston-Pokiston munosabatlarining tarixiy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida Afgʻoniston va Pokiston munosabatlaridagi asosiy muammolari etnik va hududiy masalalarning kelib chiqish tarixi, unga taʼsir etuvchi omillar, afgʻon amirlari tomonidan tuzilgan shartnomalarning hududiy muammolar bilan bogʻliqligi xalqaro huquq normalari asosida oʻrganilgan va ilmiy asoslangan.

Ilmiy izlanishlar natijasi shuni koʻrsatadiki, 1939-1945 yillarda siyosiy jarayonlar Pokiston davlatining yaratilishi uchun asos boʻlib xizmat qildi. 1945-yilda Buyuk Britaniya bosh vaziri Klement Ettli urush natijasida holdan toygan Buyuk Britaniya Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini toʻxtatishi haqidagi matnini eʼlon qildi. Buyuk Britaniya amaldorlari va Musulmonlar Ligasi oʻrtasida Hindistonning musulmonlar koʻp yashaydigan hududida “Pokiston” deb nomlanuvchi davlat yaratish masalasi muhokama qilindi. 1947-yil 3-iyunda Britaniya hukumati va Musulmonlar Ligasi Hindistonni saqlab qolish uchun kelishuvga erisha olmadi va boʻlinish rejasi ishlab chiqildi. Abdul Gʻaffor Xonning ham pushtunlardan iborat boʻlgan mustaqil davlat tuzishdagi harakatlari jadallashdi. Bu jarayonlarda unga ukasi Xon Sohib katta yordam koʻrsatdi. Lekin

1947-yildagi Hindiston mustaqilligi to'g'risidagi qonunda pushtunlar faqatgina Hindiston yoki Pokiston davlatiga qo'shilishi mumkinligi belgilangan edi. Natijada shu yilning iyul oyiga kelib NWFP hududida referendum o'tkazildi. Referendum pushtun lidelari tomonidan bekor qilindi. Chunki referendumdagi tanlovlar orasida Pushtuniston davlatini qurish haqida hech qanday fikr aks etmagan edi<sup>52</sup>. Referendumda Pokistonni yoqlab chiqqanlar son jihatidan ustun bo'lib chiqdi. Natijada pushtun liderlari Britaniya hukumatini referendumdagi ovozlar sonini soxtalashtirishda aybladi. Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi o'rganilgan tadqiqotlar referendumda soxta ovozlar mavjudligini isbotlagan<sup>53</sup>.

Pokiston chegaraviy nizolarni xalqaro huquq qoidalariga asoslangan holatda hal qilishga harakat qildi. Xalqaro huquq normalarida "res transit cum sua onera" prinsipiga ko'ra, shartnoma tuzgan davlatlarning birortasi davlat sifatida o'z maqomini tugatsa, shartnomada belgilangan barcha huquq va majburiyatlar vujudga kelgan davlat zimmasiga yuklanishi belgilab qo'yilgan<sup>54</sup>. Shuningdek, ushbu fikrni qo'llab-quvvatlovchi pokistonlik Muhammad Yousaf Vena konvensiyasiga ishora qilgan holda Dyurand chegara chizig'i Afg'onistonning xalqaro chegarasi ekanligini o'z tadqiqotlarida keltiradi<sup>55</sup>.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan fikrlarga nisbatan qarama-qarshi ma'lumotlar ham mavjud. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro huquq komissiyasining 1192-yig'ilishida 1921-yildagi Afg'oniston va Britaniya Hindistoni o'rtasidagi imzolangan shartnomaga urg'u berilgan<sup>56</sup>. Yig'ilishda shartnoma hududiy chegaralarni belgilovchi shartnoma sifatida emas, balki xavfsizlikni ta'minlash maqsadidagi siyosiy chegara sifatida tuzilganligiga ishora qiladi. Shuningdek, shartnomada vorisilik bilan bog'liq qoidalar yoki bandlar ko'rsatilmagan. Shartnomaning 11-moddasiga ko'ra bir yil oldin ogohlantirish orqali shartnoma bekor qilinishi mumkinligi ko'rsatilgan. Yuqorida keltirilgan shartnomaning asosiy maqsadi ham Britaniya Hindistoniga shimoldan keladigan xavfni oldini olish edi.

Hududiy masalalar bilan bog'liq yana bir hujjat, 1921-yilda Britaniya maxsus missiyalari bo'yicha vakili Genri Dobbsning Afg'oniston tashqi ishlari vaziriga yo'llagan maktubi katta ahamiyatga ega. Unga ko'ra, Dyurand chizig'ining sharqiy tomonidagi chegaradosh qabilalar hududi Hindiston fuqarolari emasligi qayd etilgan<sup>57</sup>. Pushtunlarning mustaqil davlat sifatida shakllanishi uchun 1944-yildagi Bannu rezolyutsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu rezolyutsiyada Britaniya Hindistoni tarkibidagi barcha pushtunlarga Pushtuniston

---

<sup>52</sup> Sayed W. A. Ethnicity, Islam and Nationalism Muslim Politics in the North-West Frontier Province (Kybar Pakhtunkhwa) (1937-1947). – Pakistan: Roohani Art Press, 2015. – P. 220.

<sup>53</sup> Sayed W. A. Ethnicity, Islam and Nationalism Muslim Politics in the North-West Frontier Province (Kybar Pakhtunkhwa) (1937-1947). – Pakistan: Roohani Art Press, 2015. – P. 226

<sup>54</sup> Jennings R. Oppenheim's International Law. Ninth edition, Vol I. London: Longman, 1996. – P. 213.

<sup>55</sup> Yousaf. M. Framing of Pak-Afghan border management issue in Pakistan, Afghanistan and US press. Doctor of Philosophy in Mass Communication. 2020. – P. 25.

<sup>56</sup> Yearbook of the International Law Commission 1972. Vol 1, – New York: United Nations Publication, 1973. – P. 248.

<sup>57</sup> Yearbook of the International Law Commission 1972. Vol 1, – New York: United Nations Publication, 1973. – P. 248.

davlatini tashkil etish huquqini berish masalasi aks etgan. Pokistonda 30 million<sup>58</sup> pushtunlar istiqomat qilishiga qaramasdan ushbu rezolyutsiya qabul qilinmadi.

Pushtunlarning yagona davlat sifatida shakillanmasligining asosiy sababi diniy omilning ta'siri sifatida baholashimiz mumkin. Chunki Hindiston yoki Pokistonga qo'shilish referendumida qatnashgan Shimoliy-g'arbiy chegara provinsiyasi aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan. Musulmonlar Pokistonga qo'shilishni avzal ko'rganlar. Musulmon bo'lmagan va ozchilikni tashkil etgan pushtunlar esa Pokiston hukumatiga qarshi jamoa sifatida ko'rindi. Shuning uchun ularning ko'pchiligi Pokiston hududini tark etishgan.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar Afg'oniston va Pokiston munosabatlardagi muammoning naqadar chuqur va chalkash ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1948-yilga kelib yanada keskinlashdi<sup>59</sup>. Buning sabablaridan biri shu yilda pushtun yetakchisi Abdul G'affor Xon va uning ukasi Xon Sohib Pokiston hukumati tomonidan mamlakatda siyosiy tartibsizliklarni keltirib chiqarishda ayblanib qamoqqa olinishi edi. Ushbu harakatlarga nisbatan, 1949-yilda 26-iyul oyida Afg'oniston hukumati vakillari Loye Jirg'aning yig'ilishida Britaniya hukumati bilan imzolangan barcha shartnomalarni bekor qilishdi<sup>60</sup>. Ikki davlat o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralarga qaramasdan etno-hududiy muammolar o'z yechimini topmadi.

Ikki davlat munosabatlarining navbatdagi to'liqini Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga olib kirilishi bilan boshlandi va Janubiy Osiyo mintaqasini katta kuchlarning raqobat maydoniga aylantirdi. Shu o'rinda amerikalik mutaxassis Thomas Taylor Hammond o'zining "Red Flag Over Afghanistan" kitobida shunday yozadi: "AQSh uchun Afg'oniston savdo sherigi emas, neft yoki boshqa materiallar manbai emas, o'zaro harbiy shartnomalar ham mavjud emas, razvedka yoki ilmiy imkoniyatlar bilan ta'minlamaydi. Lekin Afg'oniston Markaziy Osiyo va Hindiston yarim oroli o'rtasidagi strategik joylashuvga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir<sup>61</sup>. Amerika Qo'shma Shtatlarning Hindiston bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari mavjud edi. Lekin Hindistonning Qo'shilmaslik harakati a'zosi ekanligi bu imkoniyatlardan foydalanishni chekladi. Washington Janubiy Osiyoda kuchlar muvozanatini saqlab qolish uchun Pokistonning geostrategik joylashuvidan foydalandi<sup>62</sup>. Shuningdek, Pokiston Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatini o'zgartirgan holda, Sovet harbiylariga qarshi kurashayotgan mujohidlarga yordam berish yo'lini tanladi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, aynan "Afg'on jihodi" nomini olgan o'n yillikda Afg'oniston va Pokiston munosabatlari eng past nuqtaga yetgan, Pokiston Afg'onistonning ichki ishlariga aralashuvi kuchli bo'lgan davr hisoblanadi. 1989-yilda Sovet qo'shinlari

---

<sup>58</sup> Риезон Ш., Гиёсов М. Афганистан до и после возвращения Талибан. Душанбе: Дониш, 2023. – С. 396.

<sup>59</sup> Barnett R.R., Siddique A. Resolving the Pakistan –Afghanistan Stalemate. United States Institute of Peace, Special Report 176. October, 2006 – P.6.

<sup>60</sup> Dupree L. Afghanistan. Princeton University Press, 1980. – P. 492.

<sup>61</sup> Thomas T.H. Red flag over Afghanistan: The communist coup, the Soviet invasion and the consequences. – Boulder: Westview Press, 1984. – P. 26.

<sup>62</sup> Hussain. R. Pakistan and the Emergence of Islamic Militancy in Afghanistan: A Politico-Historical Analysis. Australia, Doctor of Philosophy, 2003. – P. 68.

Afg‘onistondan olib chiqilgandan keyin Pokiston Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat uchun javobgar davlat sifatida qoldi.

Tashqi davlatlarning afg‘on jihodini qo‘llab-quvvatlash fonida Amerikaning Central Intelligence Agency CIA, Saudiya Arabistonining ( رئاسة الاستخبارات العامة ) Rayosat al-Istixbarat al-Amma) Umumiy razvedka xizmati va Pokistonning (Inter-Services Intelligence) ISI tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi Afg‘oniston va Pokiston munosabatlarida muhim o‘rin egallaydi. Afg‘on jihodi davrida mujohidlarning qo‘llab-quvvatlovchi shaxs Osama bin Loden ham Saudiya Arabistoni va Pokiston razvedka xizmatlarining yaqin aloqasi natijasi hisoblanadi. Saudiya Arabistoni Umumiy razvedka xizmati boshlig‘i Turki al-Faysal Germaniyaning “Der Spiegel” jurnaliga bergan ma’lumotlarida Usama bin Loden bilan 5 marta uchrashganligini bildirgan<sup>63</sup>. E’tiborli jihati shundaki uchrashuvlarning barchasi afg‘on jihodi jarayonlari bilan bir vaqtda sodir bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan razvedka tashkilotlari Afg‘onistondagi kommunistik rejimga qarshi va mujohidlarni qo‘llab-quvvatlash uchun reja ishlab chiquvchi, moliyalashtiruvchi va ijro etuvchi vazifalarini bajargan.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida o‘rganilgan manba va adabiyotlarga asoslanib, AQSh hukumati Sovet hukumatining Afg‘onistonga qo‘shin olib kirishi uchun muhit yaratdi va bu keng qamrovli tadbirlar orqali Sovet Ittifoqining parchalanishiga yordam berdi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. Chunki Najibulla Sovetlarning harbiy va moliyaviy yordami natijasida hukumatni boshqarayotgan edi. Shuni ta’kidlash lozimki, SSSRning tarqalib ketishi va Markaziy Osiyo davlatlarining vujudga kelishi Afg‘onistonning Pokiston uchun ahamiyatini yanada oshirib yubordi. Endilikda rasmiy Islomobod energetika ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan strategiyalarni ishlab chiqish bilan band edi. Sovet Ittifoqining parchalanishi Afg‘onistonni bufer davlat maqomidan Pokiston strategiyasining bir qismiga aylantirdi.

Sovet qo‘shinlarining Afg‘oniston hududini tark etishi, Pokistonning Afg‘onistonda “davlat ichida davlat qurish” strategiyasining amalga oshishida muhim ro‘l o‘ynadi. Lekin, Pokiston bu kabi siyosiy manfaatlarining mavjudligiga qaramasdan, dunyo davlatlari nigohida Afg‘onistonda tinchilik va barqarorlikni tiklash imkoniyatiga ega yagona davlat sifatida namoyon bo‘ldi. “Strategik chuqurlik” rejasi 1980-yillarda Pokiston generali Aslam Beg tomonidan ishlab chiqilgan va Pokistonning Afg‘onistonga nisbatan tashqi siyosatida tatbiq etilgan. Strategiyaga bo‘lgan ehtiyoj 1971-yilda Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi urushda paydo bo‘lgan. Pokistonning geografik joylashuvi, uning Afg‘oniston bilan munosabatlarining ziddiyatli ekanligi Islomobodning ikki frontda jang qilish ehtimolini yuqoriligini ko‘rsatgan. Shuning uchun ham Afg‘onistonda “strategik chuqurlik” yaratish va undan foydalanish Pokiston tashqi siyosatidagi asosiy vazifa bo‘lib qoldi. Afg‘oniston “strategik chuqurlik” g‘oyasi uchun yaxshi tanlov bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, Pokiston bu strategiya orqali Kobul hukumati vakillari

---

<sup>63</sup> Spiegel Interview with Sudi Prince Turki bin Faisal. America’s Credibility is the Victim of These Leaks // SPIEGEL, 06.12.2010. <https://www.spiegel.de/international/world/spiegel-interview-with-saudi-prince-turki-bin-faisal-america-s-credibility-is-the-victim-of-these-leaks-a-733054.html> (19.10.2023)

bilan barqaror munosabatlar o'rnatishi, ular bilan birgalikda Hindistonga qarshi turishi va Afg'oniston-Pokiston o'rtasidagi chuqur ildizlarga ega bo'lgan muammolarning yana jonlanishining oldini olishga erishishni maqsad qilgan edi.

“Tolibon” harakatining vujudga kelishi ilmiy adabiyotlarda turlicha voqealar bilan bog'langan holda tadqiq etilgan bo'lib, uning paydo bo'lishi masalasida Afg'oniston va Pokistonlik ba'zi tadqiqotchilar qarama-qarshi pozitsiyalarga ega. Pokiston hukumati “Tolibon” harakatining vujudga kelishini mahalliy mayda kuchlar birlashuvining natijasi sifatida baholaydi. Ular Afg'onistonda mujohid guruhlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, zo'ravonlik va hukumatga bo'ysunmaslik jarayonlari avj olgan bir vaqtda, “Tolibon” harakati mahalliy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanganligini ko'rsatishga harakat qiladi<sup>64</sup>. Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, Afg'onistondagi ichki siyosiy vaziyat ham “Tolibon” harakatining vujudga kelishida imkoniyat yaratgan bo'lishi mumkin. Chunki Afg'oniston dala qo'mondonlari tomonidan mayda bo'laklarga bo'lib tashlangani, afg'on xalqini birlashtiruvchi yagona kuchning yo'qligi “Tolibon” harakatining faollashuviga ta'sir qilgan. Dala qo'mondonlari tomonidan amalga oshirilgan harbiy harakatlar oddiy xalqni qiyin ahvolga solib qo'ydi. Buning natijasida afg'on xalqi dala qo'mondonlariga emas, diniy ulamolarga suyanishni ma'qul ko'rishdi. Ba'zi manbalar 1989-1994 yillarda Mulla Umar Qandahorning Mayvand tumanidagi qishloqda imom sifatida faoliyat yuritganligiga ishora qiladi<sup>65</sup>. Afg'on xalqining Mulla Umar atrofida birlashuvi ham “Tolibon” harakatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. “Tolibon” harakati esa mamlakatning 90 foizidan ortig'ini egallashi mayda qismlarga bo'linib ketgan mamlakatda tartib o'rnatish umidini bergan. Afg'onistonning yangi rahbarlari mamlakatdagi barqarorlikni ta'minlash vazifasini uddalay olishmadi. Bu esa “Tolibon” harakatining hukumatni osonlikcha olishi va afg'on xalqi tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'ldi. Pokiston qurol va moddiy yordam ko'rsatishni davom ettirgan holda, Burhonuddin Rabboniyning qonuniy prezidentlik muddati yakunlanganligi, muammoning asosiy sabablari prezidentlik lavozimini tark etmaganligi bilan bog'liqligini bildirdi.

Parvez Musharraf boshchiligidagi hukumat 2 xil reja ishlab chiqdi. Birinchi, “Tolibon” harakatini mahalliy harakat sifatida namoyon qilish va Afg'onistondagi qonuniy hukumat sifatida saqlab qolish. Ikkinchi, AQSh va “Tolibon” harakati o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun vositachilik qilishni davom ettirish. Lekin, 1998-yilda Sharqiy Afrikadagi elchixonalar portlashi Usma Bin Loden tomonidan sodir etilganligi isbotlangandan so'ng, “Tolibon” harakati Usama Bin Lodenni topshirishdan bosh tortdi. Bunga sabab qilib pushtunlarning qabilaviy kodeksi “pushtunvali” ko'rsatilgan, unga ko'ra mehmon yoki himoya so'rab murojaat qilgan har qanday shaxsga zarar yetkazish mumkin emasligi bilan izohlangan.

“Tolibon” harakati Afg'oniston hukumatini boshqargan davrda Pokistonning Afg'onistonga bo'lgan ta'sirining eng yuqori nuqtasi sifatida ifodalash mumkin.

---

<sup>64</sup> Sattar A. Pakistan's foreign policy 1947-2009: A Concise History. – England: Oxford University Press, 2010. – P.157.

<sup>65</sup> Musharraf P. In the line of fire. – New York: Free Press, 2006. – P. 210.

Bu ikki davlat o'rtasidagi barcha sohalarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, 1994-1996-yillarda Pokiston "Tolibon" harakatining urushdagi nafaqat rahbari balki, ularning asosiy harbiy kuch bilan ta'minlovchi lagerlar sonini ko'paytirishga ham harakat qilgan. 1997-yilga kelib, Pokiston o'qitilgan minglab jangarilarni yuborgan va har yili 30 million dollarga yaqin miqdorda pul bilan ta'minlangan. Shuningdek, "Tolibon" harakati texnik ta'minot masalasiga ham katta e'tibor bergan. Jumladan, harbiy texnika mashinalarini yonilg'i bilan ta'minlashda va harakatning norasmiy axborot tarqatish kanallarini rivojlantirishda ham himoylik qilgan. Pokiston hukumati Afg'onistonda "Tolibon" hukumatini 1997-yil 26-mayda birinchilardan bo'lib tan olgan davlat hisoblanadi. Bu holat Pokiston tashqi ishlar vaziri Gohar Ayubxonning "Biz Afg'oniston Islom Davlatining de-yure tan olish arafasida turipmiz. Hozirda "Tolibon" harakati butun Afg'onistonni o'z nazoratiga oldi va mamlakatning vakilidir"<sup>66</sup> deya ommaviy axborot vositalarida chiqish qilganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**2001-yildagi geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida Pokistonning Afg'onistonga nisbatan siyosati**" deb nomlangan bo'lib, unda 2001-yil voqealari sharoitida Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining dinamikasi, ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahliliy materiallar asosida o'rganilgan.

Tadqiqotning ushbu bobida Islomobodning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosatining o'zgarishi atroflicha tahlil qilindi. Unga ko'ra, Pokiston hukumatining Afg'onistondagi koalitsiya harakatlarini qo'llab-quvvatlashi turli sohalarda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchidan, "Tolibon" hukumatiga neft va neft mahsulotlarini yetkazib berishni noma'lum muddatga to'xtatdi. Ikkinchidan, moliyaviy ta'minotni uzish maqsadida, Afg'onistonning Pokiston banklaridagi hisoblari muzlatildi. Uchinchidan, Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi chegara hududi qattiq nazoratga olindi. To'rtinchidan, 2002-yilda Pokistonda Al-Qoidaning ikkinchi muhim vakili Abu Zubayda hibsga olindi. Bu jarayonda Pokiston razvedkasi muhim rol o'ynagan<sup>67</sup>. Beshinchidan, chegara hududlarda AQShning 8000 ga yaqin dengiz harbiylari Pokiston havo hududi va bandargohlaridan tayanch nuqta sifatida foydalangan. Bu esa Pokiston hukumatini aksilterror koalitsiya jarayonlarida faol qatnashayotganligiga ishora qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Pokiston o'zining tashqi siyosatidagi o'zgarishlar Islomobodning Afg'onistondagi ambitsiyalariga qarama-qarshi ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, Pokiston ikki tomonlama siyosat yuritishga harakat qildi.

Pokiston hukumatining aksilterror koalitsiyadagi ishtiroki Pokiston uchun bir qancha imkoniyatlar yaratganligiga ham to'xtalish lozim. Birinchidan, Pokistonning koalitsiya doirasidagi harakatlari G'arb davlatlari bilan siyosiy aloqalarini yaxshilanishiga yordam berdi. Ikkinchidan, Pokistonga yadroviy sinovlardan keyin qo'yilgan sanksiyalar bekor qilindi. Uchinchidan, Xalqaro

---

<sup>66</sup> Siddiqui A. J. Pakistan-Afghanistan Relations in Post-Daud Period: Implications for Pakistan. – Pakistan, Doc of Philosophy, 2010. – P. 153.

<sup>67</sup> Белокреницкий В.Я., Москаленко В.Н., Шаумян Т.Л. Южная Азия в мировой политике. – Москва: Международные отношения. 2003. – С. 301.

valyuta jamg'armasi tomonidan Pokistonning tashqi qarzi qaytadan hisoblab chiqildi va Pokiston hukumati tomonidan to'lanadigan qarzining to'lov muddati uzaytirib berildi. To'rtinchidan, Yevropa Ittifoqi tomonidan Pokistondan import tovarlariga nisbatan to'lovlarning pasaytirilishi orqali eksport hajmi oshirildi. Yuqorida keltirilgan imtiyozlar Pokiston iqtisodiyotining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan ustunliklar Pokistonning koalitsiyaga qo'shilishiga turtki bo'lgan omillar qatorida ko'rsatiladi. Bu jarayonlar Islomobod rasmiylari tomonidan chuqur tahlil qilinib, qaror qabul qilingan.

Bu bob shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlari juda past bo'lgan Afg'onistonning Pokiston iqtisodiyotiga qanday bo'g'liq ekanligini ochib beradi. Afg'oniston 2001-yildan buyon xalqaro tashkilotlar va donor davlatlar tomonidan juda katta miqdorda moddiy yordam olib keladi. Afg'oniston hukumati moddiy yordam pullarining katta qismini Pokiston bozoriga olib kiradi yoki ushbu davlat orqali boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Bu holatda Pokiston Afg'oniston bozorida yetakchi davlat ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Afg'onistonning dengizga chiqish imkoniyati ham Pokiston orqali amalga oshiriladi. Afg'oniston uchun tanlov imkoniyatlari cheklangan va buning natijasida Pokiston uning eng yaqin iqtisodiy hamkori bo'lib qoladi. Bu uning iqtisodiy jihatdan Pokistonga qisman qaramligini ifodalaydi.

Ikkinchi bobda jahon hamjamiyati tomonidan birgalikda amalga oshirilgan harakatlar natijasida Afg'oniston va Pokiston munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar ham aks ettirilgan. Ushbu siyosiy jarayonlar ichida Bonn jarayonlariga alohida e'tibor berish lozim. Bonn kelishuvining imzolanishidan avval AQSh, Eron va Turkiya davlatlarining vositachiligida ikki tomon munosabatlarini barqarorlashtirish maqsadida bir nechta uchrashuvlar o'tkazilgan. Afg'oniston davlatchiligini qaytadan tiklash masalasi 2001-yil dekabrda BMT homiyligida Bonn konferensiyasida ko'rib chiqildi. Pokiston prezidenti Parvez Musharraf Afg'onistonda muvaqqat hukumat tuzish borasidagi ishlarni qo'llab-quvvatlab, Shimoliy Ittifoq a'zolarini tan oldi<sup>68</sup>.

Afg'onistonda yangi hukumatning shakllanishi Pokiston uchun yangi imkoniyatlar yaratishi va barcha sohadagi munosabatlarni qaytadan boshlash uchun eng qulay vaziyatni yaratgan. Pokistonning o'tmishda qilgan xatolari nafaqat Afg'oniston kelajagi uchun, balki Pokistonning keyingi rivojlanish taraqqiyotida ham bir qancha muammolarga sabab bo'lganligi ko'rsatilgan. Jumladan, bobda AQShning Afg'oniston va Pokiston hududlaridagi terrorchi guruhlariga qarshi o'tkazgan amaliyotlarida o'z aksini topgan va bu yaxshi natijalarni bergan.

Bu vaqtga kelib, ikki davlat chegara hududlarida harbiylarning va harbiy amaliyotlarning soni oshishi natijasida siyosiy vaziyat yanada chigallashib bordi. 2009-yilda Pokiston hududiga 1,7 milloinga yaqin afg'on qochqinlari o'tganligi qayd etilgan. Iqtisodiy jihatdan qiyin vaziyatda qolgan Pokiston hukumati uchun qochqinlarning kirib kelishi mavjud vaziyatni o'g'irlashishiga

---

<sup>68</sup> Паничкин Ю. Н. Пакистано-афганские отношения: эволюция, проблемы, решения. 1947 – 2014 гг. Дисс. док. ист. наук – Москва, 2015 – С. 324.

sabab bo'ldi. Ilmiy maqolalarda afg'on qochqinlarining Pokiston iqtisodiyotiga ta'siri haqida alohida e'tibor berilgan. Chunki Aynan Osif Ali Zardoriy hukumati davrida Pokistonning iqtisodiy ko'rsatkichlari juda past edi. Bunga harbiy operatsiyalar juda katta mablag' talab qilishi va iqtisodiy yordam so'rab murojaat qilingan turli davlatlar rad javobini berganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Shunga qaramasdan, Pokiston hukumatining harakatlari AQSh hukumati tomonidan 6 milliard dollar atrofida mablag' ajratish orqali qo'llab-quvvatlandi. Lekin, Pokiston uchun bu yetarli emas edi. 2010-yilda Pokiston iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida 1965-yilda imzolangan (ATTA Afghanistan Transit Trade Agreement) Afg'oniston tranzit savdo bitimidagi ayrim qismlari o'zgartirilgan holda (APTTA Afghanistan-Pakistan Transit trade Agreement) Afg'oniston-Pokiston tranzit savdo bitimi Pokiston Savdo vaziri Maxdum Amin Fahim va Afg'oniston Savdo vaziri Anvar ul-Haq Ahadiy tomonidan imzolandi. Bitimda Afg'oniston Pokiston bilan chegaradosh istalgan davlat bilan tovarlar almashinuvini yo'lga qo'yishi mumkin edi. Faqatgina Hindiston tovarlari Pokiston hududi orqali o'tishi taqiqlangan. Bitim dengizga chiqa olmaydigan Afg'oniston uchun juda manfaatli hisoblanadi va bir vaqtning o'zida Pokistonning Karachi, Gvadar va Qosim bandargohlaridan foydalanish huquqini berdi. TOLO newsning xabar berishicha, 2017-yil 23-oktabr kuni Ashraf G'ani "Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi savdo kelishuvi" muddati tugaganligini e'lon qildi<sup>69</sup>. Pokiston yuk mashinalarining Torkham va Spin Boldak chegara punktlari orqali mamlakatga kirishini taqiqlovchi farmon chiqardi. Vazirlikning ta'kidlashicha, yuk mashinalari faqat chegara o'tish joyigacha ruxsat etiladi. Shundan so'ng Pokiston yuk mashinalari yuklarini tushirib, Afg'oniston yuk mashinalariga o'tkazishi kerak bo'ladi. Shuningdek, Afg'oniston va Pokiston o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Qo'shma Savdo palatasi ham tashkil etildi. Qo'shma Savdo palataning tashkil etilishida 2002-yilda imzolangan Kobul deklaratsiyasi asosiy va huquqiy hujjat hisoblanadi<sup>70</sup>.

Hamid Karzay "Tolibon" harakati bilan bir necha bor kelishuvlarga erishishga harakat qildi, lekin buni uddalay olmadi. Bunga sabab Hamid Karzay hukumati Pokiston bilan beqaror munosabatlarga ega edi. Lekin tahliliy natijalar Hamid Karzayning Pokistonga 19 marta tashrif buyurganligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir qilishi kerak edi.

Shu bilan birga, ikkinchi bob 2001-2014-yillarda Pokistonning Afg'onistonga nisbatan asosiy ikki strategiyasi qanday amalga oshirilganligi ko'rsatilgan. Birinchisi, Afg'oniston Pokiston va Hindiston o'rtasidagi raqobat uchun maydon vazifasini bajarib kelgan. Pokistonning Afg'onistonga qaratilgan siyosatining umumiy mohiyati, Afg'onistonda Pokistonga qarshi bo'lgan Hindistonparast hukumat paydo bo'lishiga qarshi turishdan iborat edi.

---

<sup>69</sup> Mir Haidar Sh. Ghani bans Pakistani trucks from entering Afghanistan // 23.10.17. <https://tolonews.com/business/ghani-bans-pakistani-trucks-entering-afghanistan> (29.08.23)

<sup>70</sup> United Nations Security Council. 24.12.2002. [https://peacemaker.un.org/sites/peacemaker.un.org/files/AF\\_021222\\_AfghanistanGoodNeighbourlyRelationsDeclaration\\_0.pdf](https://peacemaker.un.org/sites/peacemaker.un.org/files/AF_021222_AfghanistanGoodNeighbourlyRelationsDeclaration_0.pdf) (12.03.23).

Ikkinchisi, AQSh boshchiligidagi koalitsiya bilan birgalikda harakat qilish va Pokiston hududida vujudga kelgan terrorchi tashkilotlarga qarshi kurashishdan iborat.

Afgʻoniston va Pokiston munosabatlarining navbatdagi rivojlanish bosqichi 2014-yilda aksilterror koalitsiya kuchlarining Afgʻonistondagi “Enduring Freedom” nomli harbiy amaliyoti yakunlanishi va Ashraf Gʻaning saylov jarayonlarida gʻolib boʻlishi bilan bir vaqtda sodir boʻldi. Koalitsiya kuchlarining Afgʻoniston hududini tark etishi Afgʻoniston milliy xavfsizlik kuchlari xavfsizlikni oʻz zimmasiga olishini anglatar edi.

2014-2021 yillar oraligʻida Ashraf Gʻani boshchiligidagi hukumat Pokistonga nisbatan xavfsizlik masalalari bilan birgalikda iqtisodiy aloqalarni ham kuchaytirishga harakat qildi. Buni Ashraf Gʻaning prezidentlikdan oldingi faoliyati bilan bogʻlash mumkin. Uning Jahon banki va Afgʻonistonda Moliya vaziri lavozimlarida ishlaganligi, Afgʻoniston iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda katta yordam bergan.

Ashraf Gʻani hukumati tashqi siyosatda “Tolibon” harakati bilan kelishuvga erishish uchun Pokiston hukumatiga taklif bilan chiqdi. Bu jarayon “Tolibon” harakatiga nisbatan Afgʻoniston hukumati tomonidan qilingan ilk yarashuv taklifi edi. Ashraf Gʻani hukumatining Pokistonga nisbatan tashqi siyosati negizida “Tolibon” harakati bilan munosabatlari aks etgan boʻlib, “Tolibon” bilan tinchlik oʻrnatishdan koʻra, Pokiston bilan umumiy xavfsizlikka erishish muhim hisoblangan<sup>71</sup>. Prezident Ashraf Gʻani ushbu fikrni juda koʻp marotaba takrorlashi orqali Pokiston hukumatida yaxshi siyosiy kayfiyat shakillantirishga erishdi.

Ashraf Gʻani hukumati davrida Afgʻoniston uchun eng katta va foyda keltiradigan iqtisodiy loyiha CPEC (China-Pakistan Economic Corridor) hisoblanadi. CPEC loyihasi Xitoy va Pokiston iqtisodiy yoʻlagi boʻlib, loyihada Afgʻoniston foydalana olish imkoniyatiga ega ekanligi bilan Afgʻonistonning iqtisodiyoti uchun muhim. Yoʻlakning Afgʻoniston hududiga tutashirilishi muammolarga sabab boʻlib kelayotgan Xaybar-Paxtunxva va Baluchiston hududlariga ham iqtisodiy foyda va siyosiy barqarorlik olib kelishi mumkin. Chunki iqtisodiy yoʻlak ushbu hududlar orqali Afgʻonistonga tutashadi. Azaldan, Xitoy Afgʻoniston hududidagi qimmatbaho resurslarga nisbatan qiziqish bildirib keladi. Ushbu loyiha doirasida qazishma ishlarini amalga oshirish imkoniyati ham kengayishi mumkin. Afgʻonistonning chegaradosh hududlaridagi mineral resurslari Xitoy hukumati tomonidan bir necha milliard dollar miqdorida baholangan<sup>72</sup>. Shuningdek, Xitoyning Kobul hukumati va “Tolibon” harakatini muzokara jarayonlariga jalb qilish imkoniyatiga ega ekanligini hisobga olsak, uning mintaqadagi taʼsiri oshishi mumkin<sup>73</sup>.

**“Ikkinchi “Tolibon” hokimiyati va Pokiston munosabatlarining oʻziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobda Afgʻonistonda hokimiyatga

<sup>71</sup> Tolo News. Peace First with Pakistan Before The Taliban: Ghani // 09.06.2015 <https://tolonews.com/index.php/afghanistan/peace-first-pakistan-taliban-ghani> (2.05.23)

<sup>72</sup> عارفه حاجی نی. ژنوپلیتیک امریکا: افغانستان و کنترول چین. مرکز نشر کابل، ۲۰۰۹. – ص. ۳

<sup>73</sup> Boʻronov S. Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish jarayonlarida Oʻzbekiston geosiyosati. Toshkent: Effect-D, 2021. – B. 146.

“Tolibon” harakatining kelishi, Pokistonning afgʻon qochqinlariga munosabati va Pokiston “Tolibon” harakatini izolyatsiya holatidan olib chiqishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan energetika diplomatiyasining Janubiy Osiyoga tatbiq qilinishi, uning yutuq va kamchiliklari atroflicha oʻrganilgan.

“Tolibon” harakati Afgʻonistonni birin-ketin qoʻlga kiritish jarayoniga eʼtibor qaratilgan. Bunda Afgʻoniston hukumatini egallash “Tolibon” harakati uchun qiyinchilik tugʻdirmagan, chunki ayrim hududlar oqsoqollar vositachiligida muzokaralar yoʻli bilan egallangan yoki hudud dala qoʻmondonlari qurollarni topshirish orqali taslim boʻlishgan<sup>74</sup>. 2021-yil 7-sentabr kuni Afgʻoniston Islom Amirligi tuzilganligi eʼlon qilindi.

Biroq, Afgʻoniston bir qator muammolarga duch keldi. Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayoti bir muddat toʻxtab qoldi. Mamlakat gumanitar falokat va chuqur iqtisodiy inqiroz yoqasida edi. Bunday sharoitda yangi muvaqqat “Tolibon” hukumati Tashqi ishlar vazirligi say-harakatlari bilan mavjud vaziyatdan chiqish va tashqi siyosatni yaxshilash boʻyicha bir qancha choralar koʻrdi. Mavjud vaziyatga koʻp jihatdan bir qancha Yevropa davlatlari va AQSh hukumati oʻrtasida oʻzaro kelishuv yordamida Afgʻonistonning chet davlatlardagi bank hisob raqamlarining muzlatib qoʻyilganligi sabab boʻlgan. Lekin “Tolibon” oʻzining siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklariga qaramasdan, oʻn toʻrtinchi davlatlar bilan eski hukumat uchun ajratilgan elchixonalarda “Tolibon” rasmiylari oʻz faoliyatini olib bormoqda<sup>75</sup>. Bu jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmagan Afgʻoniston Islom Amirligi uchun juda yaxshi koʻrsatkich sifatida baholanmoqda.

2021-yildan boshlab “Tolibon” hokimiyatga qaytishi bilan terrorchi tashkilotlar bilan kelgusidagi munosabatlari va yangi davlat tizimini shakillantirish muvaqqat “Tolibon” hukumatining diqqat markazida boʻlib qolmoqda. Ayni paytda, Afgʻonistonda ISHID Xuroson boʻlimi (Islamic State-Khorasan Province) (ISKP), (Al-Qaeda in the Indian Subcontinent), The Haqqani Network, Al Qaeda, Tehrik-e Taliban Pakistan (TTP) kabi yirik terroristik guruhlar faoliyat yuritmoqda. “Tolibon” harakati jahon hamjamiyatiga terrorchi tashkilotlar bilan aloqalarni toʻxtatishga va oʻz hududini qoʻshni davlatlarga qarshi foydalanish uchun bermaslikka vaʼda bergan. Lekin bu bajarilmagan.

TTP va Pokiston hukumati jiddiy kelishuvlari 2022-yil iyun oyida boʻlib oʻtdi. Muzokarada TTP amiri Nur Vali Ahmad va general leytenant Faiz Hamid qatnashdi. TTP tomonidan qoʻyilgan asosiy talab shariatni butun Pokistonda emas, balki eski FATA hududida tiklash va avtonom holatga qaytarish edi. Bu TTPga qisman mustaqillik berishni anglatar edi. TTPning ushbu taklifiga Pokiston hukumati faqatgina parlament tomonidan qabul qilingan hujjatlar asosida oʻzgartirish kiritish mumkinligini bildirib, TTPning ushbu taklifini diplomatik yoʻl bilan rad etdi. FATA hududi bilan bogʻliq holatlar Milliy Assambleyada va Xayber-Paxtunxva Assambleyasida ovoz berish yoʻli bilan hal qilinishi kerak edi. Ayni vaqtda Ayman az-Zavohiriy AQSh dronlari yordamida oʻldirildi,

<sup>74</sup> George S. Afghanistan's military collapse: Illicit deals and mas dissertions // 15.08.2021. <https://www.washingtonpost.com/world/2021/08/15/afghanistan-military-collapse-taliban/> (3.05.23)

<sup>75</sup> Shekhawat Sh. Observer research Foundation. New Delhi. Issue № 659 2023. – P. 6.

Islomobodning tarixda AQSh hukumatiga uchuvchisiz qurilmalardan havo hududida foydalanishga ruxsat berganligiga ishora qilgan. Ayman az-Zavohiriyning o'ldirilishi aslida AQSh hukumati tomonidan "Tolibon" va al-Qoidaning o'zaro aloqasi borligini isbotlash edi. Lekin AQShning bu rejasi muzokaralarning buzilishiga olib keldi.

Ushbu bobda Pokistonning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati o'zgargan va "Tolibon" harakatining diplomatik izolyatsiyasidan chiqishiga yordam berishiga e'tibor qaratilgan. Bu Pokistonning G'arb davlatlari va AQSh hukumatiga nisbatan munosabatlarida ko'rinadi. Shuningdek, Pokiston afg'on qochoqlariga nisbatan yengilliklar berishga va'da berdi. Rasmiy Islomobod "Tolibon" matbuot kotibining xalqaro majburiyatlarni bajarish borasidagi savoliga ijobiy ishoralar orqali javob berishga da'vat qildi. Pokiston hukumati xalqaro hamjamiyatni "Tolibon" hukumati, Afg'oniston sobiq prezidenti Ashraf G'ani va Abdulla Abdulla ishtirokidagi yangi muzokaralar olib borishga ishontirmoqda. Shuningdek, Pokiston "Tolibon" harakatining tan olinishiga erishish uchun yo'l xaritasi ishlab chiqishni rejalashtirdi. Uning asosiy maqsadi dunyo davlatlarini Afg'onistonga nisbatan pragmatik siyosat olib borishiga erishish.

Pokistonning Afg'oniston hukumatiga nisbatan pragmatik siyosatining asosiy sabablarini Pokiston Tashqi ishlar vaziri Shoh Mahmud Qurayshi quyidagicha izohlaydi: "Afg'onistondagi vaziyatni harbiy kuch bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Biz majburlash orqali hech narsaga erishmadik. Agar yuqorida keltirilgan usullar foyda berganida Pokistonning siyosiy ahvoli bu darajaga yetib kelmagan bo'lardi". Pokiston "Tolibon" hukumatini siyosiy izolyatsiya holatidan chiqarib olsa, "Tolibon" harakati Islomobod rasmiylari bilan murosa qilishlarini bildirgan. Pokiston vaqt o'tishi bilan Afg'onistonga nisbatan yumshoq siyosat olib borishga harakat qilmoqda. "Tolibon" hukumatni egallagan vaqtda, Islomobod rasmiylari ikki davlat o'rtasidagi Chaman-Spinbuldak va boshqa chegara punktlari vaqtinchalik yopilgan va harbiylar orqali kuchaytirilgan edi. Bu ularning iqtisodiy aloqalariga ham ta'sir ko'rsatgan. Pokiston ikki tomonlama savdo bilan bog'liq muammolarda G'arb davlatlari tomonidan kiritilgan sanksiyalarning ta'siriga to'xtaldi. Banklarda naqd pul kamayishi natijasida ikki tomon savdogarlari o'rtasida muammolar kuchayib ketgan. Afg'on savdogarlari Pokistondan kirib kelgan yuklar uchun dollar ko'rinishida to'lay olmagan. Bu Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi tovar aylanmasining 50% foiz qisqarishiga olib kelgan<sup>76</sup>.

O'z navbatida, Afg'oniston-Pokiston munosabatlari Markaziy Osiyo qo'shni davlatlariga ta'sir qiladi. Afg'onistonda Turkman, o'zbek va tojik diasporalarining mavjudligi ham Afg'onistonning Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikiston bilan munosabatlarining keyingi rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Pokiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi past darajada edi. Shu bilan birga, Pokiston va Afg'oniston siyosiy aloqalarni mustahkamlash va energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mintaqaviy iqtisodiy loyihalarida ishtirok etdi. Xususan, har

---

<sup>76</sup> Buner A. Govt yet to issue order for trade with Afghanistan in rupees // Pakistan today, 25.09.2021. <https://profit.pakistantoday.com.pk/2021/09/25/govt-yet-to-issue-order-for-trade-with-afghanistan-in-rupees/> (3.04.24)

ikki davlat ham energetika infratuzilmasini rivojlantrishdan manfaatdor. Bunday loyihalarda ishtirok etish ularning geografik joylashuvi bilan ham bog‘liq. Bu o‘z navbatida, ularning tranzit hudud sifatida namoyon qiladi va moddiy manfaatlar keltiradi. Prezident Ashraf G‘aning Afg‘onistonga “iqtisodiy aylanma” deb ta’rif berishi mintaqaning iqtisodiy imkoniyatlari katta ekanligiga ishora qiladi.<sup>77</sup> Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoni bog‘lay olish qobiliyatiga ega bu ikki davlat xavfsizligining yetarlicha ta’minlanmaganligi uchun ushbu imkoniyatlardan foydalanish imkonsizligicha qolmoqda.

Shu munosabat bilan Pokiston Afg‘onistondagi beqaror siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish zarurligi, ayniqsa “Tolibon” harakatining qaytadan Afg‘oniston hukumati egallaganidan so‘ng tushunib yetdi. Yuqorida ta’kidlanganidek, loyihada ishtirok etayotgan davlatlarning barchasi loyihadan ko‘rayotgan foyda bilan birgalikda mintaqadagi xavfsizlikka ham birdek hissa qo‘shayotganliklarini tushunishlari lozim. Turkmaniston va O‘zbekiston gazni Janubiy Osiyoga yo‘naltirsa, gaz narxini belgilashi mumkin. Rossiyaga shu davrgacha Markaziy Osiyoda foydali resurslarning monopolistik importyor davlati bo‘lib keldi. Markaziy Osiyo respublikalari o‘zlarining energetik bozorlarini diversifikatsiya qilishlari ularning iqtisodiy o‘shlaridagi eng foydali va sezirarli qadam bo‘ladi.

CASA-1000 loyihasi (Central Asia, South Asia) amalga oshirish va uning Afg‘oniston hududida tarmoqlanishi katta ahamiyatga ega. Afg‘onistonga elektr energiyasi O‘zbekiston va Turkmaniston orqali yetkaziladi. Lekin bu Afg‘onistonning elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondira olmaydi. Afg‘onistondagi ko‘plab shaharlarning elektr ta’minoti dizel generatorlar tomonidan ta’minlanadi. Bu elektr energiyasining qiymatini va yoqilg‘i narxini yanada oshiradi. Bu muammoga yechim sifatida 2016-yilda CASA (Central Asia, South Asia) 1000 (elektr energiya hajmi) va TUTAP (Turkmaniston-O‘zbekiston-Tojikiston-Afg‘oniston-Pokiston) loyihasi ilgari surildi. Qirg‘iziston va Tojikiston gidro elektr stansiyalari mamlakat ehtiyojidan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Lekin uning mavsumiy ekanligi va noratsional foydalanish bilan bog‘liq bir qator ekologik muammolarni hisobga olish kerak. Afg‘onistonda hukumatning o‘zgarishi CASA-1000 loyihasini to‘xtashiga sabab bo‘ldi. Lekin “Tolibon” hukumati Iqtisodiyot vaziri Abdul Latif Nazariy Afg‘onistonda amalga oshiriladigan loyihalarning xavfsizligini ta’minlashni kafolatlatdi va “Tolibon” CASA-1000 loyihasini davom ettirishga qaror qildi<sup>78</sup>.

2024-yil 2-may kuni Qozog‘iston hukumati ushbu loyihani qo‘llab-quvvatlash va loyihada ishtirok etishdan manfaatdor ekanligini bildirdi<sup>79</sup>. Qozog‘iston temir yo‘l qurilishi bilan bog‘liq materiallarni yetkazib berishni va‘da qilgan hamda bu haqida “Tolibon” savdo va sanoat vaziri Nuriddin Aziziy bilan

---

<sup>77</sup> Amina K. MR, Mohammad Ashraf Ghani, President, Islamic Republic of Afghanistan // Institute of Strategic Studies Islamabad 27.06. 2019. <https://issi.org.pk/report-public-talk-mr-mohammad-ashraf-ghani-president-islamic-republic-of-afghanistan/> (04.06.23)

<sup>78</sup> Ghumman M. New hope for CASA-1000 as Taliban govt decides to honour previous pact // Business recorder, 27.02.2023. <https://www.brecorder.com/news/40228560> (22.03.24).

<sup>79</sup> Pannier B. Kazakhstan helping to get wheels turning on Afghanistan railway projects // 2.05.2024. <https://www.intellinews.com/pannier-kazakhstan-helping-to-get-wheels-turning-on-afghanistan-railway-projects-323720/> (18.02.24)

uchrashuvda e'lon qilgan. Qozog'iston o'zining iqtisodiy manfaatlarini Afg'onistonda ko'rishi Janubiy Osiyo mintaqasining Markaziy Osiyo uchun muhimligidan dalolat beradi. Afg'onistondagi siyosiy jarayonlar barqarorlashsa, Markaziy Osiyo davlatlari Afg'oniston va Pokiston bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tojikiston Afg'oniston bilan eng uzun chegaraga ega bo'lgan va etnik soni bo'yicha pushtunlardan keyin ikkinchi o'rinda turishi bilan Afg'oniston va Pokiston munosabatlarida alohida o'rin tutadi. AQSh qo'shinlarining Afg'onistondan chiqib ketishida Tojikiston o'zining ichki yo'llaridan foydalanish uchun imkoniyat yaratgan. Bu Rossiya va AQShning qarama-qarshligiga sabab ham bo'lgan. Rossiya uchun Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotiga a'zo bo'lgan va Afg'oniston bilan chegaradosh davlat bu Tojikistondir. Rossiya Tojikistonga janubdan keladigan xavfni barataraf qilish fonida Afg'oniston va Pokistondagi siyosiy vaziyatni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## XULOSA

Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi o'zgaruvchanligi tarixdan hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan va ushbu xususiyati bilan boshqa davlat munosabatlarining rivojlanishidan farq qiladi. Tadqiqot olib borish davomida ikki davlat aloqalarining rivojlanishi, hal etilmagan muammolarning xavfsizlikka ta'siri va mintaqadagi hamkorlik jarayonlarining rivojlanishi o'rganilib, tahlil qilindi va quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, ikki davlat o'rtasidagi pushtunlar va hududiy masalalarning hal etilmaganligi qator muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ilmiy tadqiqot ishida ikki davlatning hududiy nizolarga nisbatan pozitsiyalari turlicha ekanligi, hozirgi kunda ham etno-hududiy muammolar o'zining ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatadi. Bularning barchasi masalalarni alohida etnik yoki hududiy emas, balki yagona etno-hududiy muammo sifatida ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, Afg'oniston va Pokiston munosabatlarida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to 2021-yilgacha bo'lgan davrda tashqi kuchlarning aralashuvi ularning o'zaro munosabatlarning shakllanishida qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Tashqi omillar ta'sirida shakllangan ikki tomonlama munosabatlar ikki asr davomida kuzatilgan bo'lib, dastlab, Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi, keyinchalik AQSh va Rossiya (SSSR) tomonidan mintaqa uchun o'zaro raqobatlashuvda aks etadi. Bu ulkan makromintaqadagi yirik davlatlarning turli geosiyosiy va geoiqtisodiy tashqi siyosati Markaziy va Janubiy Osiyoda beqarorlik muhitini yuzaga keltirdi.

Uchinchidan, 1978-1992 yillar oralig'ida Pokiston Afg'oniston hukumatidagi sovetparast rahbarlarga qarshi kurashish uchun tashkil etilgan muxolifat tashkilotlarga moddiy, moliyaviy va siyosiy yordam ko'rsatdi. Afg'oniston ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvini cheklashga qaratilgan 1988-yildagi Jeneva kelishuvlari kutilgan natijalarga olib kelmadi va M.

Najibulloh hukumatining ag‘darilguniga qadar yomonlashishda davom etgan ikki tomonlama munosabatlarni barqarorlashtira olmadi. 1992-yil aprel oyida Pokiston tomonidan qo‘llab-quvvatlangan mujohidlarning hokimiyatga kelishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni sezirali darajada yaxshiladi, ammo etno-hududiy muammolar hal etilmadi. 1996-yilda Afg‘onistonda “Tolibon” harakatining hokimiyat tepasiga kelishi, ikki davlat munosabatlarning eng yuqori darajaga chiqishi, Pokiston “Tolibon” hukumatini tan olgan davlatlar qatorida bo‘lishiga qaramasdan Dyurand chegara chizig‘i muammosi hal qilinmadi. Dyurand chegara chizig‘i Afg‘oniston tomonidan ikki davlat o‘rtasidagi rasmiy chegara sifatida tan olinmadi.

To‘rtinchidan, Afg‘onistonga AQSh kuchlarining kirishi Pokistonning tashqi siyosatini o‘zgartirdi va Afg‘oniston Pokiston munosabatlari g‘arb tomonidan taklif etilgan modernizatsiya jarayonlari va terrorizmga qarshi kurashish sharoitida yangi bosqichga chiqdi. Bu holatda Pokiston AQSh bosimi natijasida Afg‘onistonga nisbatan o‘z siyosatini o‘zgartirdi. Shuningdek, ikki davlat ham terrorizmga qarshi birgalikda kurashishga harakat qilgan bo‘lsa-da, qochqinlarning o‘z vataniga qaytishi, giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy qurol savdosiga qarshi birgalikda kurashish kabi muammolarga yechim topilmadi.

Beshinchidan, “Tolibon” hukumati ag‘darilgandan keyin xalqaro hamjamiyat ko‘magida Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlar nisbatan konstruktiv xususiyatga ega bo‘lib, terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan edi. Vaziyatning barqarorlashuvi Afg‘oniston va Pokiston chegara hududlarida faoliyat yuritayotgan Tolibon va boshqa xalqaro terroristik tashkilotlarning kuchayib borayotgan qurolli qarshiligini bostirishi bilan bog‘liq edi. Lekin, Pokiston o‘zining majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi, Hamid Karzay hukumatining Pokiston tashqi siyosatiga nisbatan tanqidiy yondashuviga sabab bo‘ldi va bu o‘z navbatida ikki tomonlama munosabatlarning beqarorlashuvini ta‘minladi. 2001-yil noyabr oyida AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya qurolli kuchlarini kiritilishi Pokistonning Afg‘onistonda o‘z ta‘sirini yo‘qotishiga olib keldi. Pokiston o‘z mavqeini tiklash istagida Afg‘onistonda Hindiston ta‘sirining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi va 2021-yil voqealarigacha “Tolibon” harakatini norasmiy qo‘llab-quvvatladi.

Oltinchidan, Hamid Karzay hukumatidan farqli ravishda, Ashraf G‘ani Pokiston bilan munosabatlarni yaxshilash uchun faol harakat qildi. Buning isboti sifatida prezidentlik inauguratsiyasidan ko‘p o‘tmay Pokistonga rasmiy tashrif buyurdi. Ashraf G‘ani boshchiligidagi hukumat Pokiston bilan xavfsizlik va iqtisodiy masalalarda yaqindan hamkorlik qilish bilan birga, Afg‘onistonning “Tolibon” harakati bilan muzokaralarida vositachilik qilishni taklif qildi. Bu holat Murri shahrida bo‘lib o‘tgan va boshqa tashabbuslarda Pokistonning “Tolibon” bilan muzokara jarayonlardagi ahamiyatida ko‘rinadi. Lekin, bu harakatlar “Tolibon” hujumlarining kuchayishi va Pokiston hududidan terrorchilarning qo‘llab-quvvatlashining davom etishi ortidan munosabatlar o‘zaro ishonchsizlik va ayblovlar holatiga qaytdi.

Yettinchidan, Afg‘oniston dunyoviy hukumati va muxolifat “Tolibon” harakati o‘rtasida Pokiston vositachilik vazifasini bajarib kelganligi, uning nafaqat

ikki hukumat o'rtasida, balki Afg'oniston va dunyo davlatlari o'rtasidagi roli oshganligini ko'rsatadi. Bu orqali Pokiston o'zining mavjud salohiyatidan mintaqa barqarorligi uchun kurashish imkoniyatiga ega ekanligi isbotlangan.

Sakkizinchidan, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi so'nggi o'ttiz yillik munosabatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoning xavfsizligi ikki davlat munosabatlarining ta'siri bilan bog'liq edi. Afg'oniston va Pokiston munosabatlarining barqarorlashuvi Markaziy Osiyo davlatlari va Afg'oniston o'rtasidagi yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, Afg'onistonni mintaqaviy loyihalarga jalb qilish hamda mintaqa xavfsizligiga tahdid solayotgan muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi. Bu ham Markaziy va Janubiy Osiyo aloqalarini mustahkamlash va kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'kidlash joizki, bizning tavsiyalarimiz Afg'onistondagi "Tolibon" hukumati rasman tan olinishi sharti bilan amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq, rasmiy tan olish jarayoni uzoq muddatli xarakterga ega bo'lishi va Afg'oniston-Pokiston munosabatlarini normallashtirish bugungi kunning dolzarb talabi ekanligini hisobga olib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Mintaqadagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda hamda Afg'onistondagi iqtisodiy va gumanitar inqirozning oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi BMT shafeligi va yordami ostida Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Bunday tashabbusning amalga oshirilishi Afg'oniston-Pokiston munosabatlarining barqarorlashuviga sezilarli hissa qo'shishi va Afg'onistonning mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb qilgan holda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi o'z platformasini ikki tomonlama munosabatlardagi keskinlikni kamaytirish maqsadida, muammoli masalalarni hal etish va muloqotni boshlash uchun Afg'oniston-Pokiston muzokaralarini o'tkazish bo'yicha taklif qilishi mumkin. Bu ikki davlat o'rtasidagi muzokaralar jarayonini yo'lga qo'yish tomonlarning o'zaro tushunish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Pokiston "Afg'oniston-ShHT" aloqa guruhini faollashtirish tarafdori ekanini, Afg'onistonning o'zi esa ShHTning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilayotganini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi kelgusida Afg'oniston-Pokiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni me'yoriylashtirish bo'yicha ushbu kontakt guruhi doirasida muzokaralar o'tkazishni taklif qilishi mumkin.

Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirish, o'zaro tushunish, ishonch va hamkorlikni yaxshilash jarayonini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik jarayonini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2021-yilda bo'lib o'tgan xalqaro Toshkent forumining mantiqiy davomi sifatida, mintaqaning qo'shni davlatlari bilan hamkorlikda xalqaro forumini o'tkazish imkoniyatini ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ХУДАЙБЕРДИЕВ ИКРОМ ИЛХОМЖОН УГЛИ**

**АФГАНО-ПАКИСТАНСКИЕ ОТНОШЕНИЯ  
В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XXI ВЕКА**

07.00.05 – Международные отношения и история внешней политики

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Ташкент-2024

**Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за B2021.2.PhD/Tar927.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Хайдаров Абдусамат Ахатович**  
доктор политических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Рахимов Мирзохид Акрамович**  
доктор исторических наук, профессор

**Акмалов Шаислам Икрамович**  
кандидат политических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Ученого совета за номером DSc. 03/31.01.2024. Tar.21.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения. (Адрес: 100060, город Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Тел.: (99871) 233-45-21; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: [sharq\\_ilmiy@mail.ru](mailto:sharq_ilmiy@mail.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована под номером \_\_\_\_). Адрес: 100060, город Ташкент, улица Амира Темура, дом 20. Телефон: (99871) 233-45-21.

Автореферат диссертации роздан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Отчет цифрового реестра \_\_\_\_\_ за \_\_\_\_\_ 2024 года «\_\_»).

**М.М. Исхаков**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**Н.Р. Каримов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук (PhD) по истории, доцент

**С.Б. Шадманова**  
доктор исторических наук, профессор  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях, когда в мире усиливаются различные угрозы, сталкиваются интересы государств и регионов, а также обостряются экономический и энергетический кризисы, обеспечение экономической стабильности и безопасности в Центральной Азии становится важной задачей. В то время, когда в системе мировой безопасности Южная Азия всегда выделялась своей нестабильностью, последние геополитические процессы в этом регионе вновь привлекли внимание мирового сообщества, и динамика отношений между Афганистаном и Пакистаном проявляется как часть существующих политических процессов. Анализ изменчивой динамики отношений между этими двумя государствами, влияющих на нестабильность в Южной и Центральной Азии, и определение их перспектив сегодня являются важными вопросами внешней политики стран региона.

Отношения между Афганистаном и Пакистаном привлекают внимание многих исследователей как один из ключевых факторов, определяющих безопасность, экономическое развитие и геополитическое равновесие в Центральной и Южной Азии. Анализ политических отношений между Афганистаном и Пакистаном, существующих этнических и трансграничных проблем, а также влияние экономических проектов Центральной Азии, связанных с этими странами, на будущие интеграционные процессы стал основным направлением исследований аналитических центров Европы, Америки, Китая и России. Деятельность таких центров показывает, что многолетняя нестабильная политическая ситуация в Афганистане до сих пор остается нерешенной, что подчеркивает актуальность этой проблемы. Аналогичные исследования становятся важным направлением для аналитических и научно-исследовательских центров Центральной Азии.

Обеспечение безопасности в Южной Азии, а также укрепление сотрудничества между Афганистаном и Пакистаном и государствами региона в экономической, культурной и политической сферах являются одними из основных целей внешней политики Нового Узбекистана. В этом контексте Узбекистан предпринимает важные шаги через международные проекты, связанные с транспортными коридорами, поставками энергетических ресурсов и политическими переговорами, которые служат ведущими платформами для развития двусторонних отношений между двумя странами. "Если на другом берегу Амударьи не будет мира, Узбекистан и Центральная Азия не смогут достичь безопасности и стабильного развития"<sup>1</sup>. По этой причине сокращение внимания к Афганистану, который в своей новой истории сталкивается с социально-экономическим и гуманитарным кризисом, вызывает беспокойство среди государств региона.

Настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит выполнению задач, установленных Указом Президента Республики

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" xalqaro konferensiyasi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatnomasi. 26-iyul, 2022. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/26/afghan/>

Узбекистан от 28 января 2022 года УК-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлением от 12 ноября 2020 года ПП-4892 «О мерах по дальнейшему расширению и укреплению экономического сотрудничества с Исламской Республикой Афганистан», Постановлением от 23 мая 2019 года ПП-4331 «О мерах по совершенствованию деятельности межправительственных комиссий (комитетов, советов и рабочих групп) по двустороннему сотрудничеству между Республикой Узбекистан и зарубежными странами», а также других нормативных актов, касающихся данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового государства, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Исследования, имеющие отношение к теме исследования, проанализированы нами с помощью условной классификации их на следующие три группы: исследования центральноазиатских авторов, исследования зарубежных авторов и исследования афганских и пакистанских авторов.

Первая группа. Среди этой группы исследователей следует отметить монографию С. Сафоева<sup>2</sup>, в которой рассмотрена история геополитических процессов, происходящих в Центральной Азии, и показано влияние Афганистана на Центральную Азию. Вопрос воздействия политических процессов, происходящих в Афганистане, на Узбекистан также нашел свое отражение в исследованиях А.А. Хайдарова<sup>3</sup>. Исследователи С. Акимбеков<sup>4</sup> Р. Рашидов<sup>5</sup>, Ш. Акмалов<sup>6</sup> делают акцент на вопросы развития государственности при освещении истории Афганистана. Ш. Риёзон и М. Гиясов<sup>7</sup>, С. Бурунов<sup>8</sup> в своих научных публикациях исследовали значение геополитического расположения Афганистана и его участие в экономических проектах, связанных с Южной Азией. В работе А. Умарова<sup>9</sup> исследованы, отношения между Афганистаном и Китаем, а также освещено влияние Китая в Южной Азии.

---

<sup>2</sup> Safojev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: Patent press, 2005. – 160 b.

